

**IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON
TIJORATNING AHAMIYATI**

Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti Mutaxassislik
gumanitar va aniq fanlar kafedrası Katta o'qituvchisi*

Yo'ldosheva Shahzoda Bahrombek qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti Axborot tizimlari
va texnologiyalari yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Axborot texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab yuridik va jismoniy shaxslarning o'zaro elektron kanallar orqali savdo va xizmat almashinuvi jarayonlarini amalga oshirishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Internetning global axborot maydoni sifatida shakllanishi biznesni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi. Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlarining takomillashuvi, mobil ilovalar va raqamli platformalarning ommalashuvi elektron biznes hamda elektron tijoratning iqtisodiyotdagi o'rnini yanada mustahkamladi. Natijada, elektron tijorat yirik va kichik korxonalar, tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslar faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi bilan iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, Internet, yuqori texnologiyali xizmatlar, elektron tijorat, elektron ommaviy axborot vositalari*

Abstract: *The rapid development of information technologies in the modern world has created extensive opportunities for legal entities and individuals to conduct trade operations through electronic channels. The emergence of the Internet as a unified global information space has enabled businesses to transition to a new stage of development. At the same time, the advancement of electronic payment systems, mobile applications, and digital platforms has strengthened the role of e-business and e-commerce within the economy. As a result, e-commerce has become*



an integral part of the activities of large and small enterprises, entrepreneurial entities, and individual users, contributing to increased efficiency in economic processes.

Keywords: *information technologies, Internet, high-tech services, e-commerce, electronic mass media*

Kirish

Elektron tijoratni rivojlantirishga O'zbekistonda ham keng e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yildagi respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda 2014-yilgi iqtisodiy dasturining ustuvor vazifalarida elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar joriy etish ushbu sohaning rivojlanishiga muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli qonunining 20-moddasida elektron tijoratni tartibga soluvchi asosiy parametrlar belgilangan. Mazkur qonunchilik bazasi sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Bugungi kunda mamlakatda 40 milliondan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, ularning qariyb 10,5 millioni onlayn to'lov kartalari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda telekommunikatsiya va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni internet orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud. Prezident tomonidan "eng qisqa muddatlarda bu boradagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, ushbu sohani yanada rivojlantirish zarur" deb ta'kidlangan fikrlar elektron tijoratning dolzarb ahamiyatini yana bir bor ko'rsatadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarini liberallashtirishga qaratilgan bo'lib, elektron tijorat sohasi ham bu jarayondan mustasno emas. Shu bois mazkur mavzu dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Elektron savdo orqali qo'shimcha mijozlarni jalb etish, daromadlarni oshirish, tannarxni kamaytirish, tovar harakati jarayonini qisqartirish va xizmatlar



sifatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi. Elektron to'lovlar, tijorat ma'lumotlarini xavfsiz uzatish va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash kabi jarayonlarning barchasi zamonaviy dasturiy ta'minot orqali samarali tarzda amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Elektron tijorat va uning mohiyati ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, A.V. Yurasov, J.S. Vestland, T.K. Klark, D. Kozenlar o'z ilmiy ishlarida elektron tijoratning mazmuni, iqtisodiy jarayonlardagi o'rni va amal qilish tamoyillarini tahlil qilganlar. M. Ramzaev, P. Chujanov, V. Tarasovlarning tadqiqotlarida esa elektron tijoratning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi o'rni hamda ta'sir mexanizmlari yoritilgan.

V.V. Senkevin, N.I. Gerashchenko kabi olimlar esa elektron tijoratni boshqarishda davlatning roli, uning tartibga solish mexanizmlari va huquqiy asoslariga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonda esa elektron tijoratni rivojlantirish masalalari A.N. Aripov, X.A. Muxitdinov, M.M. Mahmudov, T.K. Iminov, N. Yusupova, B. Ergashev, S. Avganbaev, R.I. Isayev, A.R. Valiev kabi mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan yoritilgan. Ularning izlanishlari elektron tijoratning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida uning ahamiyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va rivojlantirish istiqbollari bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari jamiyatimizning barcha jabhalariga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Shu tufayli ish yuritish madaniyatining elektron ko'rinishi shakllanmoqda, masofa qisqarmoqda, vaqt tejalmoqda va iqtisodiy samaradorlik oshmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron tijorat, elektron to'lovlar tizimi va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.



Elektron tijorat tizimi yordamida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi to‘lov operatsiyalari tezkor amalga oshiriladi, buyurtmachilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik qulaylashadi. Shu bilan birga, tadbirkorlar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, dunyoning istalgan davlatida hamkor topishlari, mahsulot va xizmatlarini xalqaro bozorlarga olib chiqishlari mumkin.

ICTSUMMIT xalqaro tadqiqot tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 12 milliondan oshgan. 2022-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi 48% turli qurilmalardan internetdan foydalangan. Foydalanuvchilarning asosiy qismi (64%) 16–34 yoshdagilar, veb-saytlar foydalanuvchilarining 37% esa 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.

Internet foydalanuvchilari orasida 59% erkaklar, 41% ayollar. O‘zbekistonlik foydalanuvchilarning o‘rtacha daromadi oyiga ko‘pincha 200 dollardan oshmaydi, 68% oliy ma’lumotga ega.

Elektron tijorat va an’anaviy tijoratning taqqoslanishi

№	Elektron tijorat	An’anaviy tijorat
1	Xaridor o‘ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulot tanlaydi va xarid qiladi	Xaridor ma’lum vaqt ajratib, ko‘rsatilgan manzilga borib xarid qilishi kerak
2	Savdo-sotiq faoliyatini boshqa ish bilan parallel olib borish mumkin	Savdo alohida faoliyat bo‘lib, bir vaqtning o‘zida boshqa ish bilan shug‘ullanish qiyin
3	Ko‘p sonli xaridorlar bir vaqtning o‘zida bir nechta firmalarga murojaat qilishi mumkin	Murojaat qiluvchi xaridorlar soni cheklangan
4	Kerakli mahsulotni tez topish, korxonalarga tez murojaat qilish imkoniyati yuqori	Mahsulot izlashda vaqt sarfi ko‘p, texnika va transportdan samarali foydalanish cheklangan
5	Xaridorning yashash joyi, sog‘ligi yoki moddiy ahvoli cheklanmaydi	Xarid imkoniyati xaridorning sog‘lig‘i yoki moddiy ta’minotiga bog‘liq



6	Jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash imkoniyati mavjud	Bozordagi tovar assortimenti bilan cheklangan
7	Raqobatni kuchaytiradi, monopoliyani kamaytiradi, mahsulot sifati oshadi	Raqobat cheklangan, sifat oshishiga to‘sqinlik qilishi mumkin

Elektron pulning roli

Elektron tijorat jarayonlarida to‘lovlar asosan elektron pullar orqali amalga oshiriladi. Elektron pul — pul birligiga tenglashtirilgan raqamli belgi yoki fayllar majmuasi bo‘lib, u quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi;
- tranzaksiyalarni tez va samarali amalga oshirish imkonini beradi;
- foydalanuvchi anonimligini ta‘minlaydi;
- moliyaviy xavfsizlikni yuqori darajada ta‘minlaydi.

Internet orqali xaridlarni amalga oshirishda turli elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish mumkin. Bu tizimlar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi mablag‘larni elektron hisoblar orqali tezkor va xavfsiz uzatishga imkon beradi.

Xulosa

Elektron tijorat iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat yirik korporatsiyalar, balki kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga ham global bozorda ishtirok etish imkonini yaratadi, yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytiradi hamda iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Elektron savdo operatsiyalari xarajatlarni kamaytiradi, geografik masofalarning ta‘sirini bartaraf etadi va sotuvchi hamda xaridor o‘rtasida tezkor shartnomaviy aloqalarni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, yangi bozor ishtirokchilari paydo bo‘ladi, kichik biznes subyektlari xalqaro raqobatga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Elektron to‘lov tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savdo operatsiyalarining shaffofligini oshiradi, mahsulot sifati va yetkazib berish shartlari



haqida tezkor ma'lumot olishni ta'minlaydi. Shu tariqa, elektron tijorat nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki innovatsion iqtisodiyotga o'tishda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muxitdinov X.A. O'zbekistonda infokommunikatsiya xizmatlari moliyaviy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Toshkent 2008. 214 b.
2. Адылова З.Т., Марахимов А.Р., Игнатов Н.А., Мадрахимов Ш.Ф. «Обеспечение информационной безопасности сетей передачи данных и автоматизированных систем». –Т., 2004.
3. Белоусов А. Электронный документооборот. Юридические аспекты ИТ-бизнеса // Сриме-ресерч.орг.
4. Бабкин Ф.В. Электронная коммерция и новые организационные формы компаний // Менеджмент в России и за рубежом. – 2000. – № 1